

ARTISTIC ANALYSIS OF THE MENTAL STATES PORTRAYAL IN THE NOVELS OF RAY BRADBURY AND ISAJON SULTAN

Shakhnoza Azimboyevna YULDOSHOVA

Independent Researcher

Uzbekistan State World Languages University

Tashkent, Uzbekistan

RAY BREDBERI VA ISAJON SULTON ROMANLARIDAGI BOTINIY HOLATLAR TASVIRINING BADIY TAHLILI

Shaxnoza Azimboyevna YULDOSHOVA

Mustaqil tadqiqotchi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Tashkent, O'zbekiston

ХУДОЖЕСТВЕННЫЙ АНАЛИЗ ИЗОБРАЖЕНИЯ ДУШЕВНОГО СОСТОЯНИЯ ГЕРОЕВ В РОМАНАХ РЭЯ БРЭДБЕРИ И ИСАДЖОНА СУЛТАНА

Шахноза Азимбоевна ЮЛДОШОВА

Независимый исследователь

Узбекский государственный университет мировых языков

Ташкент, Узбекистан shaxnozayuldoshova1991@gmail.com

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Yuldoshova Sh.A. Ray Bredberi va Isajon Sulton romanlaridagi botiniy holatlar tasvirining badiiy tahlili // O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2024. — № 4 (57). — B. 204-218

<https://doi.org/10.36078/1730187226>

Received: June 10, 2024

Accepted: August 17, 2024

Published: August 20, 2024

Copyright © 2024 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



Open Access

Abstract. This article examines the artistic and psychological portrayal of internal states in Ray Bradbury's novels *Fahrenheit 451* and Isajon Sultan's *Eternal Wanderer*, focusing on the characters' expressions. The study employs a psychoanalytic approach and comparative-typological methods. It examines the portrayal of spiritual growth and decline in the characters throughout the narrative, as well as the evolution of the protagonists' psyches, tracing their maturation through the challenges and contradictions they face and their spiritual growth and progress toward realization. In traditional works of fiction, the highest point of conflict in the plot is the climax, which reflects the impact of the dramatic action and is accompanied by the denouement, that is, the beginning of a decision or the reversal of a decision. These climaxes describe the characters' state of mind and internal changes. The study also considers the relationship between the characters' names and their roles in the work, their artistic skill, the author's philosophy, and the conflict between them.

Keywords: hero's psyche; inner states; realization; conflict; psychological analysis; character line; contrast.

Annotatsiya. Maqolada Ray Bredberining “Farengeyt bo'yicha 451 daraja” va Isajon Sultonning “Boqiy darbadar” asarlarida botiniy holatlarning badiiy psixologik tasviri badiiy tahlilga tortilgan. Psixanalitik metod, qiyosiy-tipologik metodlardan foydalanilgan. Qahramonlarning syujet liniyasi davomidagi tadrijiy takomili yoxud aksincha tubanlashuvining badiiy asardagi tasviri va elementlari tadqiq etilib, qahramonlar ruhiyatidagi o'zgarishlar, ularning konflikt

natijasida kamolotga yetib borishi, ruhiyatida kechadigan yuksalishlar va o'zligini anglashlari tahliliy ko'rib chiqilgan. An'anaviy fantastika asarlarda syujetdagi konfliktning eng yuqori avj nuqtasi, voqelikning keskin holatlari aks ettirilgan kulminatsion nuqta va undan so'ng yechim, ya'ni biron qaror yoki qarordan voz kechish kuzatiladi. Ana o'sha avj nuqtalarda qahramonlarning ruhiy holati va botiniy o'zgarishlari tasvirlanadi. Maqola obyekti bo'lgan asarlar misolida yozuvchilarning qahramonlar ismlari mohiyati va ularning asardagi vazifalarini ochishdagi badiiy mahorati, yozuvchi falsafasi va qahramonlar taqdiri o'rtasidagi uzviy bog'liqliklar ilmiy izohlangan.

Kalit so'zlar: qahramon ruhiyati; botiniy holatlar; anglash; konflikt; psixologik analiz; personajlar liniyasi; qarama-qarshilik.

Аннотация. В статье анализируется художественно-психологическое изображение внутреннего состояния героев в романах Рэя Бредбери «451 градус по Фаренгейту» и Исажона Султана «Вечный странник». Используются психоаналитический метод, сравнительно-типологические методы. Исследуются образы и элементы духовного роста героев на протяжении сюжетной линии или их упадок в художественных произведениях. В статье анализируются изменения в психике героев, их взросление через сюжетные конфликты и противоречия, их духовный подъем и продвижение к реализации. В традиционных художественных произведениях высшей точкой конфликта в сюжете является кульминация, которая отражает воздействие драматического действия и сопровождается развязкой, то есть началом решения или отменой решения героя. В кульминации описываются душевное состояние и внутренние изменения персонажей. Такие моменты рассматриваются в статье. Обсуждается взаимосвязь имен героев и их задач в произведении, художественное мастерство, философия автора и конфликт между персонажами.

Ключевые слова: психика героя; внутреннее состояние; осознание; конфликт; психологический анализ; характеры; контраст.

Kirish

Qiyosiy adabiyotshunoslikda, xususan, amerika va o'zbek fantastik nasrida olib borilayotgan so'nggi tadqiqotlarda botiniy holatlar, badiiy psixologizm va qahramon ruhiyati alohida o'rganilmoqda. Botiniy holatlar tadqiqi va uning badiiy asardagi o'rni haqida "Adabiyotshunoslik lug'ati"da "badiiy asarda to'laqonli inson obrazini yaratishning muhim vositalaridan biri; personaj ruhiyatining ochib berilishi, xatti-harakatlari va gap-so'zlarining psixologik jihatdan asoslanishi, shu maqsadlarga xizmat qiluvchi usul va vositalarning jami" (13, 48) deya ta'rif beriladi. Bu esa asarda qahramonlarning ichki kechinmalari, ular boshdan kechirayotgan voqea-hodisalarning qahramon kamolotidagi o'rni naqadar muhim vosita ekanligini anglatadi.

Adabiyotshunos G. Xalliyeva psixologik-tipologik o'xshashliklarni qiyosiy tahlil qilishni quyidagicha sharhlaydi: "Zamonaviy adabiyotshunoslikda badiiy asarning adabiy jarayondagi o'rni belgilash maqsadida janr-uslubiy jihatdan o'rganishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bunda ijodkor shaxsining ma'lum bir asarni yaratishdan individual psixologik moyilligi tushuniladi. Komparativistlar ko'p hollarda bunday

ko‘rinishlarni qiyoslanayotgan mualliflarning tabiatidagi ruhiy yaqinlik bilan izohlaydilar” (17, 47).

Ushbu mavzu o‘rganilishining asosiy mohiyati botiniy olamni tadqiq etishga bo‘lgan ehtiyojdir. Ayniqsa so‘nggi yillarda botiniy olamning murakkabligi, ruhiy holatning tez-tez almashib turishi falsafa, psixologiya, adabiyotshunoslik fanlarining tadqiq obyektiga (10, 13) aylanganligi va ko‘pgina adabiyotshunos olimlar tomonidan o‘rganilayotgani diqqatga sazovordir.

Badiiy asardagi qahramon ruhiyati, psixologizm xususida ko‘pgina adabiyotshunoslar tadqiqotlar olib borishgan. Xususan, V. G. Plexanov, N. G. Chernishevskiy, M. M. Baxtin, H. Umurov, D. Quronov, A. S. Lixodziyevskiy kabi olimlar shular jumlasidandir. Adabiyotshunos, munaqqid Suvon Meli “...badiiy asar qalbiga kirish, undagi fikr va tuyg‘uni mushtarak ko‘rib, badiiy tuyg‘u zamiriga sho‘ng‘ishdir, ya‘ni adabiyot falsafasi — tuyg‘u falsafasidir” (12, 3), deganida badiiy asarning nafaqat personajlar, balki kitobxon uchun ham ruhiy olam ozig‘i ekanligini nazarda tutadi.

Fantastik asarlarda ham qahramon ruhiyatining rivojlanib borishi juda muhim omildir, chunki fantastika ilmiylikka asoslangan badiiy to‘qima yoki faqat ilmiy risolagina emas, balki san‘at asari hamdir. U san‘at asari sifatida har bir jamiyatning kuchli ijtimoiy quroli bo‘lib xizmat qilishi darkor. Jahonning barcha fantast yozuvchilari yaratayotgan ilmiy-fantastik asarlarda umuminsoniy g‘oyalarni qattiq turib himoya qilishadi. Ilmiy fantastika har qanday ilmiy farazni tashviq qilishga qaratilgan bo‘lmasin, o‘sha ajoyib-g‘aroyib ilmiy farazlarni olg‘a suruvchi inson obrazi bilan tirik. Va albatta, fantastik asarlarda ham, asosiy muammo asar yaratilgan vaqtdagi ijtimoiy-siyosiy hayot, jamiyatning yechim topishi yoki yaxshilab tafakkur qilinishi kerak bo‘lgan masalalari bo‘lishi kerakligi har qanday adabiy janrdagi kabi adabiyotning muhim mezonlaridan biri bo‘lib yuzaga chiqadi.

Rey Bredberi “Farengeyt bo‘yicha 451 daraja” (17) asarida kitoblarni yoqish inson tasavvurini qanday darajada o‘ldirishi mumkinligini tasvirlash uchun voqealarni izchil rivojlantirishni yo‘lini tutadi. Roman voqealari xaritasini tuzib chiqib yozuvchining syujetni qurish mahoratini yaqqol ko‘rish mumkin: bular orasida missis Gudsonning (Mrs. Hudson) kitoblar uchun o‘lishga tayyorligi va o‘zini yoqib yuborishi, Montegning xotini bilan do‘stlari bilan to‘qnashuvi, Montegning kapitan Bittini o‘ldirishi va Montegning Mexanik Ko‘ppakdan mohirona qochishi kiradi. Bredberi Montegning ruhiy olamini ziddiyatlarga to‘ldiradi, shubha-gumonlarga ko‘mib tashlaydi, xavotirini kuchaytiradi va atom urushini bashorat qiladi. Monteg, xuddi labirintdagi kalamush kabi, chiqish yo‘lini topmaguncha, burchakdan burchakka aylanib boradi va oxirida haqiqat yo‘lini topadi.

Isajon Sultonning asaridagi burilish nuqtalari orasida esa Hazratning (katta ehtimol bilan yozuvchi Hazrat timsolida Hizr alayhissalomni nazarda tutgan) yosh etikdo‘zga “mudhish va qattol bir qarg‘ishning yukini” (9, 3) bildirganida, sahrodagi badaviylarning karvonidagi chol va nabira suhbatida, xalqaro anjumandagi kutilmagan hodisa ro‘y berishi, ya‘ni inson takomili markazida yaratilgan sun‘iy odamning barcha insoniyatga yo‘llagan murojaatida, kulminatsion nuqtasi esa, professor Ziyo o‘g‘lining maktubi deyish mumkin.

Asosiy qism

“Farengeyt bo‘yicha 451 daraja” romanida asarning ziddiyati insoniyatning apokaliptik halokati emas, balki ichki kurash va tafakkur uchun kurashdir. “Boqiy darbadar” asaridagi konflikt esa o‘zligini yoqotayozgan insoniyating o‘zining o‘ziga bo‘lgan to‘qnashuvi deyish mumkin.

To‘qnashuv (konflikt) — hikoyaning qahramoni istagiga erishish maqsadida boshdan kechirayotgan har qanday kurash. Juda ko‘p hollarda ijodkor konfliktni o‘ylab topmaydi, balki birlamchi borliq — real hayotdan oladi, shu tariqa, konflikt adabiy yaratilgan mavzusi, muammolar doirasi, pafosi sohalariga hayotning o‘zidan ko‘chib o‘tadi (18, 15). Konflikt — badiiy asar harakatining asosini tashkil etuvchi xarakter va holatlar, qarashlar va hayotiy tamoyillarning keskin to‘qnashuvi bo‘lib, qahramonlar yoki qahramonlar guruhlar, qahramon va jamiyat o‘rtasidagi qarama-qarshilik, ziddiyat, to‘qnashuv yoki qahramonning o‘zi bilan ichki kurashida ifodalanadi. Konflikt taraqqiyoti syujet harakatini yuzaga keltiradi. Konflikt yechiladigan yoki hal etilmaydigan (fojiali konflikt), ochiq yoki yashirin, tashqi (belgilar to‘qnashuvi) yoki ichki (qahramon qalbidagi qarama-qarshilik) bo‘lishi mumkin. Dramatik asarlarda syujet elementi sifatida alohida ahamiyatga ega (19). Adabiyotda, xususan, nasr-epik adabiyotida konflikt quyidagi toifalarga bo‘linishi mumkin:



“Farengeyt bo‘yicha 451 daraja” asari qahramonlari yuqoridagi konfliktlarni deyarli har biriga duch kelishadi. Roman syujeti o‘t o‘chiruvchi Montagning atrofida bo‘lib, u o‘zi va uning atrofidagi dunyo nihoyatda zalolatli va senzura uchraganini tushunadi. “Boqiy darbadar”da esa olam va odam o‘rtasidagi umumbashariy qonuniyatlarning tanazzulini to‘qnashuv sifatida olish mumkin.

Bundan tashqari asardagi ziddiyatlar qahramon ruhiyati va harakatiga qarab botiniy (ichki) va zohiriy (tashqi) shakllarga ham bo‘linishi mumkin.

Ichki ziddiyat — qahramon va uning o‘zi o‘rtasidagi ziddiyat kategoriyasi; bunda qahramon o‘z ichki dunyosi, his-tuyg‘ulari, haqiqatlari bilan ziddiyatga kirishadi. Ichki ziddiyat ko‘pincha qahramonning nuqtayi

nazarini ko'rsatadi, u nimani o'ylayotganini ochiq ko'rsatadi. Montag hikoyasining aksariyati ushbu ichki mojaro atrofida joylashgan. O'quvchi boshidanoq ikki qarama-qarshi istak iskanjasida qiynalayotgan odamni ko'radi: kitoblarni saqlab qolish va yo'q qilish istagi.

Rafiqasi tabletkalarning sanog'ini unutib, yuqori dozada ichib, o'z joniga qasd qilishga harakat qilishi, kitobsevar do'sti Klarissaning ma'nosiz o'limi, Montegning kasbi kitoblarni va shuning barobarida bilimlarni yo'q qilish ekanligi tushunib qolishi, o'z kitoblari bilan o'lishga qaror qilgan ayolni uchratishi, bu esa Montegni ma'lum darajada qotilga aylantirishi, kasb-hunarini o'lim va umidsizlik o'rab olganini anglash, u to'g'ri ish qilyaptimi yoki yo'qmi, deb o'ylashga olib keladi. Bu ziddiyatlar bilan kurashib, azoblanib, botiniy turg'unlikka erishgachgina tanlov qiladi va to'g'ri yo'l tomon harakat qiladi.

“U o'zini oy botgandan keyin sovuq, marmar bilan qoplangan dahmaga tushib qolgandek his etdi. Zim-ziyo zulmat. Deraza ortidagi kumush yog'dudan bu yerda asar ham yo'q. Derazalar zichlab berkitilgan, xona katta shahar shovqinidan loqal tiq etgan tovushi yetib kelmaydigan qabrga o'xshardi” (17, 12). Bu parchada Montag Klarissani uchratgandan keyin o'z uyini sovuq qabr dahmasiga o'xshatadi. Tashqaridagi hayotdan, tabiatdan *“zichlab berkitilgan”* hech qanday ma'naviy yoyinki tabiiy unsurlarning hayotbaxsh *“tiq etgan tovushi”* kirmaydigan turmushi biradiniga unga jonsizdek tuyula boshlaydi. Qalban yolg'izligini sezadi. Unda o'z ichki meni uyg'ona boshlaydi.

“Boqiy darbadar” asarida esa, *“Madaniyatlar, sivilizatsiyalar, siyosatlar, fikriy va g'oyaviy kurashlar, ulkan ijtimoiy hodisalar, megapolislar, tutunga o'ralgan shaharlar va yashil qishloqlaru dalalar qatorida mayda-chuyda tirikchilik tashvishlari bilan tinimsiz harakatlanayotgan odamlar izdihomi... butun olam tortishish kuchini yengib, fazoga yo'l olishga tayyorlanayotgan fazoviy kemalar, ninachilarday har tomonga imillab uchib borayotgan mahalliy uchoqlar, inson bolasining ayanchli gerdayishlariga sabab muhtasham qasrlaru avtomobillar... to'qqiz chaqirim pastda, materiklarda qolib ketgan edi* (8, 13)”. Professor Ziyo xalqaro anjumandan keyingi qalbini larzaga solgan voqealarni o'ylab borarkan yozuvchi uning *“mayda-chuyda tirikchilik tashvishlari bilan tinimsiz harakatlanayotgan odamlar”*ning biri ekanligini, *“olam tortishish kuchini yengib”* Yaratguvchiga o'zining naqadar aqlli ekanini ko'rsatishga urinayotgan *“inson bolasining ayanchli gerdayish”*ini qo'qqisdan anglagan edi. Bo'layotgan voqea-hodisalarga *“to'qqiz chaqirim yuqoridan”* turib qarash unga ancha ruhiy azob berayotgan edi.

Monteg esa o'z kasbini va hozirgi vaziyatni shubha ostiga qo'yadi. *“Farengeyt bo'yicha 451 daraja”*ning birinchi jumlasida quyidagi so'zlar mavjud: *“Yonish yoqimli edi”* (4, 3). Albatta, bunda kitoblar saqlanadigan uylarni yoqish unga zavq bag'ishlashini nazarda tutgan. Biroq bunga qarama-qarshi ravishda, Monteg kitoblarni havo-ventilyatsiya teshigiga yashirayotgani asar boshidanoq darhol ma'lum bo'ladi, u o'z kasbiga shubha qila boshlaydi. Klarissa bilan uchrashuvda qiz undan baxtlimi yoki yo'qligini so'raydi. *“Bu haqda o'ylar ekan, yuzidan tabassumni go'yo juda uzoq yongan va yakuniga yetib, oqib tushayotgan sham singari sirg'alib tushib, yo'qalayotgan mumdek his qildi. “Zulmat”. U baxtli emas. Baxtli emas!”* (5, 11) Montagning ichki mojarosi birinchi sahifalardanoq namoyon

bo'ladi, u o'quvchiga o'zining umidsizligi, sovuq tuyg'ulari haqida gapirib beradi.

Tashqi mojarolar nuqtayi nazaridan, Montag va kapitan Bitti o'rtasidagi keskin munosabatlar — "Farengeyt bo'yicha 451 daraja" romani qahramonlari o'rtasidagi asosiy ziddiyatdir. Monteg asarda bosh protagonist yoki bosh qahramon rolini, Bitti esa antagonist yoki asosiy qarama-qarshi qahramon rolini o'ynaydi. "...Ko'ribsizki, *jurnallar vanil sharbatiga aylangan, kitoblar esa chuchmal yuvindini eslatadi. Shuning uchun kitoblar kasodga uchragan, bunga ajablanmasa ham bo'ladi deyishadi, quruq olifta, kalondimog' tanqidchilar. Biroq kitobxon o'ziga nima kerakligini juda yaxshi bilardi, o'yin-kulgilar girdobida aylanib, o'ziga komikslarni tanladi. O'z-o'zidan ma'lumki, shahvoniy jurnallarni ham e'tibordan soqit qilmadi. Ana shunday, Monteg. Bularning hammasi yuqoridan, hukumatning hech qanday aralashuvisiz sodir bo'ldi. Bu mutlaqo qandaydir farmoyish, buyruq yoki senzura taqiqlarisiz boshlandi. Texnika, ommaviy iste'mol va xuddi shu guruhlarining tazyiqi, bugungi ahvolga olib keldi. Endilikda ular tufayli o'zingizni baxtli hisoblashingiz mumkin. Ko'nglingiz tusaguncha komikslarni, ulardagi turli-tuman tavba-tazarrulari-yu, savdo-reklama nashrlarini o'qishingiz mumkin...*" (5, 63) Yuqoridagi parchadan ko'rinib turibdiki, kapitan Bitti Montegdagi o'zgarishlarni sezgan va unga asardagi jamiyatning qanchalar to'g'ri va oqilona tashkil etilganini, kitoblarning yo'q qilinishi, jamiyatning razolatga botishi, fuqorolarning tabiiy tanlovi ekanligi — bu *hukumatning hech qanday aralashuvisiz sodir bo'lgan*iniga ishontirishga urinadi. Qisqartirib tashlangan, faqatgina reklama va rasmlar komisklardangina iborat, insonga hech qanday ma'naviy ozuqa bermaydigan nashrlarnigina o'qibgina *o'zini baxtli hisoblash* mumkinligiga ishontiradi. Bunda hukumatning bir vintik-muruvatchasi bo'lgan Bitti o'zi ham aslida yolg'onligini biladigan narsalar bilan Montegni miyasini chalg'itmoqchi bo'ladi.

"Farengeyt bo'yicha 451 daraja" romanida umidsizlikning umumiy mavzulari va kitobsiz jamiyatdagi qayg'uni tasvirlash uchun Matyu Arnoldning "Duvr sohili" (21) she'ridan foydalanadi. Monteg Mildred yoki uning dugonalaridan birining o'z baxtsizligini anglashlari uchun bu she'rni o'qiydi. She'rda iymon, mehr va o'zaro ishonch mavzulari ko'tariladi va o'quvchini tabiatning bir bo'lagi bo'lgan inson zotining qalbi sohillarini faqat ishonch (diniy ma'noda iymon masalasida ham ko'rish mumkin) suvlarigina yuvib, poklab turishi madh etiladi. G'ayritabiiy olamga bo'lgan e'tiqodning asta-sekin yo'q bo'lib borayotganidan afsuslanish ifodalangani "Iymon dengizi" suv oqimi kabi chekinayotgani, uning chekinishi Montagning davrida iymonning yo'qolishi uchun metafora shaklida qo'llanilgan bo'lib, "buzilgan e'tiqod olamiga" qarshi turishni chalkashlik labirintiga aylangan dunyoning timsoli kabi ko'rinadi. Montag she'rni o'qiyotganda Mildredning dugonalaridan bir Missis Felps yig'lay boshlaydi. Ayol o'z hissiyotlari dafatan uyg'onganidan, qalbidagi bo'shliqdan, qo'qqisidan paydo bo'lgan bu tushunarsiz tuyg'ulardan qo'rquvga tushib yig'layotgan bo'ladi aslida.

"Boqiy darbadar"da Boeing 787 Dreamlinerda xalqaro anjumandan qaytayotgan professor Ziyoning qalbida ham ayni tuyg'ular uyg'ongan edi. O'zining insoniyatga, qolaversa, o'z vijdoniga qilgan bu xiyonati haqida bosh qotirar, ojiz insonning haminqadar bilimi natijasi o'laroq qilingan bu

tajribasi rejalari nizomidan chiqib ketganidan xavotir va hadikda o'y surardi. O'y- xayollari esa Hazrat Navoiyning "Lisonut-tayr" dostonining xotimasidagi misralarga eltadi va tafakkur qiladi. Hazrat Navoiyning umri so'ngida yozilgan bu asari (1) ayni damda uning qalb tug'yonlarini ayni tafsirlab kelardi.

...Tab'ima tushsa xato birla zilal,
Kilkima sahv o'ldi ersa yo xalal.
Lutf ila, yo Rabki, borin afv qil,
Nomai a'molidin ham mahv qil.
Har parishon so'zki yozdim, yo Karim,
Baridin astag'firulloh, al-azim (2).

Buyuk iste'dod va bemisl fikriy quvvat hosilasi bo'lmish bu misralardan orttirib so'z aytish mahol edi. Dunyodan ketar kishining bundan marg'ubroq so'z aytishi ham mahol edi.

Professor Ziyoning ko'zlariga yosh quyilib keldi. Yodida esa ulug' mutafakkirning so'ng misralari xuddi qyun kabi chirpirak bo'lib aylana boshladi:

*Har parishon so'zki yozdim, yo Karim,
Baridin astag'firulloh, al-azim... (8, 47).*

Mildred — Montegning o'n yil birga yashagan rafiqasi. Montag nafratlanadigan jamiyatning sayozligi va o'z-o'ziga ishonchsizlikning timsoli sifatida ko'rinadi. Milli — o'zining devor televizorlar va quloqlaridagi radio chig'anoqlar kabi asrning texnologik asboblariga tobe, haqiqiy baxtdan voz kechgan, haqiqatdan doimiy qochadigan irodasiz personaj. Millining texnologiyalarga qaramligi uni o'z joniga qasd qilishga urinishiga olib keladi, bundan tuzalib ketgach, buni hatto eslolmaydi. Oxir-oqibat, Milli erining o'zgarib qolgani, kitoblarga bo'lgan sadoqatidan hayratda qoladi, uning noqonuniy faoliyati haqida xabar beradi va uydan qochib ketadi. Asardagi bo'sh, ma'nisiz jamiyatining timsoli bo'lgan Milli, shubhasiz, roman oxirida shaharni atom bombasi vayron qilinganida, u ham vayron bo'ladi. U butun jamiyatni ifodalaydi: tashqi tomondan baxtli, ichkarida nihoyatda baxtsiz va bu baxtsizlikni ifoda eta olmaydi yoki uni yengishga qodir emas. Mildred qahramoni yozuvchi tomonidan jamiyatdagi er-xotinlik munosabatlari, ayollarning jamiyatdagi o'rni, oila atalmish qo'rgonda ayol qanchalar ma'nan muhim shaxs ekanligini ko'rsatish uchun gavdalantirilgan. Montegning xotini Mildredning ismi ingizchadan "mild strength" — "yumshoq kuch" degan ma'noni anglatadi va o'z xohishiga ko'ra yashashni xohlaydi. Bu uning qanchalar irodasiz, moslashuvchan, o'zgaruvchan shaxsiyatiga yo'nalish beradi.

Umuman, Rey Bredberining bu romani feministik yondashuv tanqidchilari tomonidan ko'plab bahs-munozaralarga sabab bo'lib, tanqidlarga uchragan. Yozuvchi bu asar bilan ayollarni kamsitmoqchi yoki ularning hayotiy vazifasini ko'rsatmoqchi emas, balki jamiyatdagi mavjud "uyda o'tiruvchi", "go'zallikka mukkasidan ketgan", "telefon va televizorda hayotini o'tkazadigan", o'yin-kulgiga xalaqit berishi mumkinligi uchun hatto "farzand ko'rishni ham xohlamaydigan" "hedanizmga berilgan" (isrofgarchilik) shaxslarni, u xoh ayol, xoh erkak bo'lsin tanqid qilish,

ularni kelajak, aniqroq qilib aytganda, yomonroq, tubanlikka qarab ketayotgan kelajak haqida ogohlantirmoqchi bo'ladi.

Romanning antagonistasi Kapitan Bitti — Montag ishlaydigan o't o'chiruvchilar boshlig'i. Kapitan Bitti asarning eng vahimali va murakkab qahramonlaridan biridir. O'ta sezgir, u boshidanoq Montagning kitob o'g'irlaganini va kitoblarga bo'lgan qiziqishini yashirayotganini sezadi. O't o'chiruvchilarning yagona maqsadi kitoblarni topish va yo'q qilish, shuning uchun erkin fikr urug'ini ham yo'q qilishdir. Montagning "katta akasi" sifatida kapitan Bitti jamiyatda kitoblar mavjudligiga qarshi argumentlarida keng adabiy bilimni namoyish etadi. "...Qora tanlilarga «Kichkina qora Sambo» kitobi yoqmaydi. Yoqish kerak. Oq tanlilarga «Tom tog'aning kulbasi» yoqmaydi. Uni ham yoqish kerak. Kimdir chekish o'pka rakiga sabab bo'ladi deb kitob yozibdi. Tamaki fabrikantlarining paytavasiga qurt tushgan. Bu kitobni kuydirmoq kerak" (4, 64). Yoki o'zaro suhbatlarda Montegni "Haqiqat haqiqatligicha qoladi, deb jar solardik: olijanob fikrda yurgan odamlar yolg'iz bo'lishmoqda, deb o'zimizni ishontirardik. «Eh, jonli ohangdoshlikda jo-bajo bo'lgan donolik» degan ekan ser Filip Sidney. Boshqa tomondan esa Aleksandr Pop aytganidoyok, «So'zlar barglarga o'xshaydi, ular zich bo'lgan joyda esa yaproq ostida panoh topishi qiyin» bu haqda fikringiz qanday Monteg?" (4, 64) yoki kabi gaplar bilan fikr-mulohazalarini bilishga intilishi, uning adabiy, tarixiy va falsafiy kitoblarning anchaginasini o'qib qo'rganini angalatadi.

Bittining o'zi kitoblarga paradoksal munosabatda bo'lib, kitoblar noqonuniy bo'lgan davrda juda ko'p o'qigan, ammo o't o'chiruvchi sifatida u kitoblarni ijtimoiy tahdid sifatida yo'q qiladi. U har doim o'rinli adabiy iqtiboslar keltiradi, lekin u kitob o'qish jamiyat uchun xavfli ekanligini va shuning uchun kitoblar yo'q qilinishiga loyiqqligini isbotlash uchun ulardan foydalanadi. Roman oxirida Monteg minglab kitoblar va umidlarni yoqib yuborgan o't qo'ygich bilan Bittini o'ldiradi. Montag bilan kurashish o'rniga, Bitti o'z o'limini qabul qiladi. «Sening dag'-dag'alarindingdan qo'rqmayman, kassiy. Ular bayram kechalaridek o'tadi-ketadi. Vijdon hissi mening panohim». Shundaymidi? Eh, noshud adabiyotchi! Imillamang, axir, tepkini bosing! Bitti shunday deb bir qadam olg'a yurdi..." (4, 124). Keyinchalik Montag uning o'lishni xohlaganini, hayotidan juda noroziligini, jamiyatdan va o'z ichki ziddiyatidan charchaganini tushunib yetadi. Bitti baxtsiz edi, chunki u yashirincha kitoblarni o'qishni va mulohaza qilishni yaxshi ko'radi. Buning isboti esa uning kitoblarni qanchalik yaxshi bilishidir. U har xil kitoblardan iqtibos keltira olardi, hatto o'zini kitoblar bilan yoqib yuborgan kampirning "Mard bo'ling Mister Ridli"¹ degan aslida juda qisqa tushunarsizdek tuyuladigan bu parchani ham tushunadi.

Rey Bredberining "Farengeyt bo'yicha 451 daraja" romanidagi bosh qahramon va uning hamkasblarining ismlari ramziy ma'noga ega. Bosh qahramonning ismi oddiygina Gay. Ingliz tilida "guy" "yigit, oshna" ma'nosini beradi. Demak, syujet boshida u mutlaq o'rtacha inson va oddiy

¹ Izoh: Bu iqtibos XVI asrning yetakchi ingliz islohotchisi Xyu Latimer va anglikan episkopi Nikolas Ridliga tegishli: ular Rim-katolik ta'limotini tan olishdan bosh tortadilar, shuning uchun 1555-yilda bid'at uchun tiriklayin yoqib yuborildilar.

fuqoro turmush tarzini olib boradigan “oddiy odamlar” vakili. Shuningdek, 5-noyabrda nishonlanadigan Gay Foks — Gulxanlar kuniga ham ishora qiladi.

Uning familiyasi Monteg mashhur qog‘oz fabrikasi, “Montag Brothers' Paper Company” haqida kinoyaviy ishoradir. Uning familiyasi o‘qituvchisi Faber bilan mos tushadi, bu nemis kanselyariya buyumlari ishlab chiqaruvchi Faber-Castellni eslatadi. Qalam oq qog‘ozni to‘ldirganidek, Faber ham Montag bilan radio orqali gaplashib, uning boshini yangi g‘oyalar bilan to‘ldiradi. Shuningdek, “Uning ismi Faber edi” (4, 78), homo faber-bu ijodkorlik bilan bog‘liq bo‘lgan so‘zlashuv nomi sifatida tushunilishi mumkin. Bunga misol sifatida uning elektron audiokapsulasini (huddi quloqchin kabi) ixtirosini keltirish mumkin. Bu ism, shuningdek, Iesuit ordenining ikkita kolleji asoschisi bo‘lgan Piter Faber (1506–1545) tarixiy shaxsiga ishora qilishi ham mumkin.

Klarissa qiziquvchan 17 yoshli qiz, Montagning qo‘shnisi. Klarissa dunyoning Montag tushunmaydigan qismlariga qiziqadi, masalan, odamlarni kuzatish, oyga qarash, barglarni hidlash, yomg‘irning ta‘mi, kabi. Klarissa o‘z jamiyatiga bog‘liq bo‘lgan ilg‘or texnologiyalarni yoqtirmaydi va shuning uchun Montagning rafiqasi Millining aksini ifodalaydi. Klarissa Montagni o‘z-o‘zini anglashi uchun yo‘l ko‘rsatuvchi bo‘ladi. Montag bilan do‘stlashganidan ko‘p o‘tmay katta tezlikda kelayotgan mashina uradi. Uning o‘limi hukmron, jaholatli jamiyatning uning talablariga javob bermaydiganlarga nisbatan murosasizligini anglatadi. Atrofdagilardan farqli o‘laroq, Klarissa bilimga intiladi. U Bitti kabi bilimdan qurol sifatida foydalanmaydi, Montag kabi ichki muvozanat buzilishiga malham sifatida bilimga intilmaydi, surgun qilinganlar kabi bilimni jamiyatni qutqarish usuli sifatida izlamaydi. Klarissa shunchaki olamni bilishni xohlaydi. Klarissa kabi odamlar bor ekan, Bredberi hamma narsa yaxshilanishi mumkinligini anglatmoqchi bo‘ladi. Klarissa voqealar ko‘lamidan juda erta chiqib ketadi, lekin uning ta‘siri asar davomida sezilib turadi. U nafaqat Montagni ochiq qo‘zg‘olonga undaydi, balki uning xayollarida qoladi. Klarissaning shuuri qahr-g‘azabini o‘zi xizmat qilayotgan jamiyatga qarshilik ko‘rsatishga yo‘naltiradi. Klarissa ismi inglizchadagi “clear” poklamok, tozalamoq so‘ziga ishora qilib keladi va bosh qahramonning botiniy poklanishi uchun asarda juda kam vaqtga paydo bo‘lsa-da, voqealar rivojida Montegni to‘g‘ri yo‘lga chorlab turguvchi mayoq kabi takroran eslanadi. Montegnining hayotida bir toza ekin, musaffolik bilan kirib keladi, uni to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatadi.

Asardagi yana bir qahramon professor Faber — bir paytlar adabiyot o‘qituvchisi bo‘lgan keksa odam. Bunday odamlarga o‘rin yo‘q dunyoda, Faber o‘zi yashayotgan insoniylikdan mahrum, zolim jamiyatni juda yomon ko‘radi. Biroq u qarshilik yoki dunyoni o‘zgartirishga urinishdan ko‘ra, ehtiyotkorona yashash xavfsizroq deb hisoblaydi. Qaysidir ma’noda u Bittining qutbli qarama-qarshi tomonidir: u jamiyatdan nafratlanadi va o‘qish va mustaqil fikrlash kuchiga ishonadi, lekin Bittidan farqli o‘laroq, u qo‘rqadi va o‘z bilimidan hech qanday tarzda foydalanmaydi, qorong‘ilikda yashirinishni afzal ko‘radi. Monteg kitoblar sehriga berilgach, u Faberni qidirib boradi va ular birgalikda zolim jamiyatiga qarshi turishga harakat qilishadi. Monteg Faberni unga yordam berishga majbur qilganda, Faber osongina qo‘rqib ketadi, chunki u hokimiyatning zo‘ravon kuchidan juda

qo'rqadi. Monteg qonundan qochib ketayotganda, Faber unga qochishga yordam beradi. Roman oxirida o'quvchi Faber shahardan erta avtobusga chiqishni rejalashtirgani uchun atom bombasidan qochib qutulganiga ishonishni xohlaydi. U butun umri davomida jamiyatning intellektual tanazzuliga guvoh bo'ldi. Faber ko'pincha yoqimsiz ko'rinishida bo'lgan jaholatning g'alabasini ifodalaydi, ko'pincha amalda qo'llanilmaydigan vaznsiz bilimlar, g'oyalar ko'rinishida bo'lgan intellektualizm ustidan g'alaba qozoniladi.

Grenjer faqat romanning 3-qismida uchraydi. Monteg Faberni (va avvalgi hayotini) tark etgach, Montegning yo'l boshchisi sifatida tasvirlanadi. Professor bo'lganida, Grenjer shaxsning jamiyatga munosabati haqida kitob yozgan. Endi esa, u kitob yod oladiganlar guruhiga rahbarlik qiladi. U Montegga Mexanik Ko'ppakdan qochishga yordam beradi. Asarda Grenjer Montegga murabbiy bo'lib xizmat qiladi, unga jamiyat alohida, chekkada qanday omon qolish kerakligini tushuntiradi. Shuningdek, u Montegga ijodiy erkin haykaltarosh bo'lgan bobosi haqidagi shaxsiy hikoyalari bilan o'rtoqlashganda, qanday yashash kerakligi haqidagi muqobil hayot falsafasi bilan bo'lishadi.

Gayning hamkasblari "Stounmen" va "Blek" deb nomlanadi va bu ularga aynan munosib keladi. Stounmen (tosh odam) o't o'chiruvchilar kitob o'qiganlari yoki yashirganlari uchun odamlarning kitoblari, uylarini yoqib yuboradigan sovuqqonlik va hissizlikni eslatadi. Bleyk esa qora — bu yong'in uchun mos rang, yondirilgandan keyin qolgan kul va hech narsaning timsolidir.

Kapitan Bittining ismi "quvonch yoki baxt" degan ma'noni anglatuvchi "beatific" so'zi bilan bog'liq. Nima uchun uning ismi istehzoli ma'noda qo'llanilgan? Agar kapitan Bitti haqida mulohaza qilinsa, u hech qachon baxtli emas. U ishi undan nimani talab qilishi va u haqiqatan ham nimani xohlayotgani o'rtasida ziddiyat borligini ko'rish mumkin. Bu qarama-qarshilik shu qadar ziddiyatli bo'lib, oxir-oqibat Montegni o't qo'ygich bilan o'ldirishga undaydi. Bu ish aniq baxtli odamning ishi emas, shuning uchun uni quvonch yoki baxt sharafiga nomlash juda istehzoli bo'lar edi. Bitti baxtsiz, chunki u yashirincha kitoblarni o'qishni va mulohaza qilishni yaxshi ko'radi. Buning isboti esa uning kitoblarni qanchalik yaxshi bilishi, har xil kitoblardan iqtibos keltira olishidir.

Isajon Sultonning "Boqiy dabadar" asarida ham qahramon nomlari ularning ruhiy holatini ochishga xizmat qiladi. Avvalo, yozuvchi asar sarlavhasida mavzuga munosabatni yetkazishga yordam beradigan, mavzuga yorqinlik, jonlilik beradigan ekspressivlik vositasi epitetni qo'llagan, ya'ni insonga "abadiy", "darbadar" sifatlarini berib, Yaratguvchisiga qarshi chiqqanlarga nisbatan mangu behuda hayot qismatidan o'quvchilarga majoziy ma'lumot beradi. Adib har bir jonzotning tabiatiga singib ketgan mukammal yaratq qonuniyatini buzib, eng komil mavjudotni yaratish formulasini topgan olimni Ziyo deb ataydi... Asarda Yaratguvchining azaliy qonun-qoidalarini buzish baxtsizlikka yo'l ochib berishini, bunday tartibsizliklar oxir-oqibat insoniyatga fojia olib kelishini, inson hech qachon mukammallikka da'vo qila olmasligini, ya'ni iymon isyonining kuchayishini ham Ziyo qalbidagi ziddiyatlarda ko'rinadi. Boqiy yashovchi va kuchli fikrlaydigan bu sun'iy odam yaratilish maqsadini tushuna olmaydi, o'y-fikrlari chalkashib ketgan holda, haqiqatni izlash

uchun qochib ketadi. Ziyo berishi ilm bilan dunyoga yorug'lik taratishi kerak bo'lgan Professor ana shunday ziddiyatlar ichida qolib ketadi. Bir necha yil sahro bag'rida kezib afsonaviy Haybar shahrini izlab topganida, boqiy yashovchi odamlarning aftodahol holatlarini mag'zini, maqsadsiz, mazmunsiz hayotlarining sababini xalqaro anjumandan qaytayotib samolyot bortida o'tirgan holatda idrok etadi va tushunib yetadi. Ruhida ulkan nomutanosiblik paydo bo'ladi. Qalbida sham kabi zaif tarzda miltillab turgan dunyoning oxiri haqidagi tuyg'u birdan avjlanadi va uning butun ichki dunyosini qamrab oladi.

Yozuvchi qahramonlar qalbidagi ichki ziddiyatlar orqali keskin savollar qo'yadi. *"Umriboqiy bu chol haqida unchalik ishonib bo'lmaydigan boshqa rivoyatlar ham bor. Shuningdek, uylangani yoki farzandlari bo'lgani haqida ham hech gapirilmaydi. Qalbida mudhish bezovtalik va qo'rquv hukm surgan odam uchun kimnidir sevis, oila qurish, bola-chaqa ko'rish kabi insoniy ne'matlarning ahamiyati qolarmikin?"* (8, 7) Parvardigorning rahmatidan mosuvo kishining qalb xotirjamligi yo'qligining, uning nafaqat zohiran, balki botiniy ham darbadarlikka duchor etilganining tasviridir. Yoki g'orda toat-ibodat bilan mashg'ul avliyodan mo'jiza talab qilgan kishiga qarata *"Mening bu g'orda ekanimu yemishim anjir ekani — bechoraligimni ko'rsatadigan holat emasmi? Hamma narsada o'zim Tangrimga muhtojmanu sen mo'jizani Undan so'rashning o'rniga, mendan so'raysanmi?"* (8, 11) deya yana iymon masalasini muqarrar qiladi. Asarning adabiyotshunos olim Dilmurod Qur'onov tomonidan *"O'ylashga undovchi asar"* deya e'tirof etigani bejiz emasligini, asarning har bir satrida, har bir betida anglashib boriladi (12, 77).

"Boqiy darbadar" asaridagi professor Ziyo o'g'lining maktubini o'qigach, qilgan xatosini tushib yetishi, o'g'il obrazi orqali aslida yozuvchi qalb va aql o'rtasidagi munozarani ko'rsatganday bo'ladi. Ziyo o'g'lining *"...Ota, abadiy darbadarlikka mahkum bir odam haqida aytgan rivoyatingizni eslaysizmi? Men hozir dunyoning har bir mamlakatida, har bir go'shasida, halol va imonli kishilar bilan bir qatorda, ana shunday darbadar insonlarni ham ko'rmoqdaman... Shunday darbadarlikka muhtalo bo'lmaslikning yo'llarini izlamoqdaman. Kun kelib, ruhim samolarga qarab yo'l olganida, mukammallikka erishgan zotlar bilan bir qatorda bo'lishni orzu qilaman"* (8, 26). Olim maktubdan so'ng, Vatan, ona tuproq, millat tarixi haqida o'yg'a tolgan, o'zi yaratgan mukammal inson geni orqali ilmfanga va insoniyat xizmat qilish o'rniga yana bir darbadar, hayotda ma'no-maqsadsiz mavjudot yaratib qo'yganini anglab yetgan bo'lsa, ne ajab.

Isajon Sultonning *"Boqiy darbadar"* asarida esa insonning maqsadmanzillari, bugungi tezlashgan glaballashuv zamonidagi inson qadriyatlarini haqidagi mavzular ko'tarilgan bo'lib, insoniyatga taqdim qilinayotgan bunday imkoniyatlar ko'rinishidagi har qanday ne'mat, agar ezgulik va iymon ravnaqi uchun qo'llanilmasa, albatta, halokatlidir. Ayniqsa asardagi yaratguvchiga isyon ila yaratilgan sun'iy genomlar tasviri e'tiborlidir. Ularning biri kuchli nurlanishga chidamli qilib yaratilgan, lekin kamchiligi bor — uni ko'zlari ko'rmaydi. Yana bittasining esa, suyaklari egiluvchan va chidamli, lekin mushaklari kerakli ma'danni yetkazib berolmaydi, boshqasining esa aqli yo'q, biroq barhayot yashaydi. Mukammal qilib yaratilgan sun'iy mavjudot esa unga berilgan aql-zakovat bilan fikrlab,

“Men kimman?”, “Otim nima?”, deya nega yaratilganini bilish uchun, bu olamning Yaratguvchisini izlab yo‘lga chiqadi. Bu darbadar genom aslida hayot haqiqatini izlagan, asliyatini, menini qidirgan har bir inson timsoli bo‘lib keladi. Umuman, romandagi barcha darbadarlarni tahlil qilinganda, ularning barchasi ramziy ma’noga egaligini anglash mumkin. “Xudo yo‘q” deya faqat aql va tafakkurgagina suyanuvchi, barcha narsani faqatgina insonning o‘zi yaratganligi, tabiiy rivojlanish qonuniyatini tan olib da’vo qiluvchi, ammo shu aql-zakovatni odamzot shuuriga joylab qo‘ygan Buyuk Zotni rad etuvchi zamonning atestik insonlari timsoli darbadarlar. Na millati, na dini, na tili qolgan globallashuv natijasiga aylanib ketgan ma’nan darbadar insonlar ramzi bo‘lgan darbadarlik! Ruhiyat nuqtayi nazaridan olinsa, tug‘ilishidan qanchalar oldin bitilgan taqdirining egasi bo‘lgan Zotni anglash uchun umr yo‘liga chiqqan qalb kishilarining timsoli sifatida ham ko‘rinadigan darbadarlik, ya’ni zohid qalblar timsolidir.

“Boqiy darbadar” asarida ayni bir qahramon emas, balki har bir qahramonning o‘z mulohazalari, hayotiy falsafasi borligi alohida e’tiborga molik. Qahramon xoh duoyibadga uchragan etikdo‘z bo‘lsin, xoh sahroda kechib yurgan karvonboshi chol bo‘lsin, hoh sun’iy yaratilgan genom bo‘lsin ular hayottan maqsad izlaydilar, ular izlagan savollar javobi esa aqlda emas, balki qalbdagi jo bo‘lganini birlari anglab yetgan bo‘lsalar, ayrimlari tushunib yetmay halokatga yuz tutadilar.

Rey Bredberi ham, Isajon Sulton ham o‘z asarlarida insonni har qachongidan ham yuksakka ko‘tarib, uning kuchi, idroki, salohiyati, ruhiy hamda ma’naviy barkamolligini bevosita texnik taraqqiyot, texnologik rivojlanish va sivilizatsiya bilan uzviy bog‘ladi. Inson va uning mukammalligi, o‘z asliyatini izlashi, o‘z ma’naviy kamoloti xususida qayg‘urish kabi muammolari Rey Bredberi va Isajon Sulton asarlarining bosh g‘oyasiga aylandi.

Yuqoridagi mulohazalarga va tahlillarga ko‘ra, har ikkala asarda ham mualliflar o‘zlari yashagan jamiyatning nuqsonini, unda yashovchi insonlarning qalb istiroblari-yu kechinmalarini tasvirlaganlar. “Farengeyt bo‘yicha 451 daraja”da globallashuv, bilimdan uzoqlashish, fan-texnologiyadan faqat inson nafsini yo‘lidagina foydalanish olam va jamiyatning tanazzulligiga olib keladi, deyilsa, “Boqiy darbadar”da fan-texnikaga mukkasidan ketish, insoniyatni ilohlikka da’vo qilishi, berilganidan ortig‘iga ega bo‘lishga urinish ham xuddi shunday tanazzulga olib kelishi asarlardagi universal g‘oyalardir. Asarlar yozilgan zamon va makonlar, ulardagi o‘z milliy xususiyatlariga yo‘grilgan elementlari esa o‘zi xosliklari sifatida namoyon bo‘ladi.

“Farengeyt bo‘yicha 451 daraja” va “Boqiy darbadar” asarlarida botiniy holatlarning badiiy psixologik tasvirini tahlil qilishda, asar syujetidagi burilishlar, qahramonlarning ichki ziddiyatlari, voqealardagi izchillik, botiniy holatlarning badiiy tasvirida ko‘rish mumkin. “Farengeyt bo‘yicha 451 daraja” romanida asarning ziddiyati insoniyatning apokaliptik halokati emas, balki ichki kurash va bilim uchun kurashdir. “Boqiy darbadar” asaridagi konflikt esa o‘zligini yo‘qotayozgan insoniyatning o‘zining o‘ziga bo‘lgan to‘qnashuvi deyish mumkin.

Xulosa

Maqolada ko'rib chiqilgan masalalar yuzasidan quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Bredberi asarida voqealar bosh qahramonning nuqtayi nazaridan rivojlanadi. Uning ichki kechinmalari yo'q qilish yoki saqlab qolish istagi o'rtasidagi ziddiyati uni harakat qilishga undaydigan kuch bo'lib xizmat qiladi.

2. Isajon Sulton asarida esa asarning aniq bir qahramoni yo'qdek, voqealar bir-biridan mustaqil rivojlanayotganday tasvirlanadi, biroq hamma voqealarni yagona g'oya biriktiradi.

3. Asar qahramonlari o'rtasidagi ziddiyat Monteg va Kapitan Bitti o'rtasida ko'rinadi. Ikkisi ham kitoblardagi bilimdan xabardor bo'lib, biri jaholatga botgan jamiyatning vintik-murvatlashi bo'lishni, ikkinchisi esa, bilimni saqlab qolish va to'g'ri yo'natirish yo'lini tanlashida ko'rinadi.

4. Ikkala asarda ham lirik parchalar orqali qahramon ruhiyatidagi o'zgarishlar, kechinmalar, qarama-qarshiliklar, kechinmalar ochib berishga harakat qilingan.

5. Qahramonlar tizimi ikkala asarda turlicha shakllantirilgan. "Farengeyt bo'yicha 451 darajada" qahramonlari aniq, o'zaro munosabatga kirishgan, sistematik tasvirlanadi. "Boqiy darbadar" asarida aniq bir bosh qahramon mavjud emas, voqealar zamon va makon jihatidan turli yo'nalishlarda tasvirlangan. Har ikkala asarda ham yozuvchilar vaziyatlarga qahramonlarning qarama-qarshiliklari va to'qnashuvlariga savollar orqali yoritishga harakat qilishadi.

6. Har ikkala asarda ham qahramonlarning nomlari ularning asardagi pozitsiyalari va vazifalarini ochib berishga moslab tanlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy Lison ut-tayr (nasriy bayoni bilan). — Toshkent, 2005. — URL: <https://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/xurshid-davron-navoiynoma-xv-xvi-lison-ut-tayr-haj-armoni-yana-gavgo-mahbubul-qulub-navoiy-armoni.html> (murojaat etilgan sana: 05.10.2024.)
2. Alisher Navoiy. Lisonut tayr. Mukammal asarlar to'plami 20 jildlik, 12-jild. — Toshkent: Fan, 1994. 357 b. — URL: https://n.ziyouz.com/books/alisher_navoiy_asarlari/Alisher%20Navoiy.%20Mukammal%20asarlar%20to'plami.%2012-jild.pdf (murojaat etilgan sana: 05.10.2024.)
3. Bradbury R. Fahrenheit 451. — New York: Simon & Schuster Paperbacks, 1995. — 229 p.
4. Bredberi. Farengeyt bo'yicha 451 daraja. <https://kh-davron.uz/kutubxona/jahon/rey-bredberi-farengeyt-boyicha-451-daraja-nuriddin-egamov-kitob-kotargan-odam.html> (murojaat etilgan sana: 05.10.2024.)
5. Bredberi R. Farengeyt bo'yicha 451°. — Toshkent: Nihol nashr, 2022. — 224 b.
6. Harold B. Bloom's Modern Critical Interpretations: Fahrenheit 451. — New York: Infobase Publishing, 2008. — 133 p.
7. Ibrohimova R. Voqelik va fantastika. — Toshkent. Muharrir. 2011. — 198 b.

8. Isajon Sulton “Boqiy Darbadar”, // “Sharq yulduzi” jurnali, 2010, 6-son. — URL: <https://kutubxona.samduuf.uz/download/4752> (murojaat etilgan sana: 05.10.2024.)
9. Isajon Sulton ijodi: ilmiy maqolalar, taqrizlar, adabiy suhbatlar, maktublar. — Toshkent. Turon zamin ziyo, 2017. — 384 b
10. Ko‘chimov U.Q. Fantastik asarlarda badiiy psixologizm kontseptsiyasi (Rey Bredberi va Hojiakbar Shayxov ijodi misolida) // filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. — Toshkent, 2021. — 159 b.
11. Matthew A. Dover Beach. — URL: <https://www.poetryfoundation.org/poems/43588/dover-beach> (murojaat etilgan sana: 05.10.2024.)
12. Meliyev S. Adabiyot falsafasi yoxud ko‘zga aylangan ko‘ngil. — URL: <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/suvon-meli-adabiyot-falsafasi-yoxud-ko-zga-aylangan-kongil/?lng=lat> (murojaat etilgan sana: 05.10.2024.)
13. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. — T.: Akademnashr, 2010. — 400 b. — URL: <https://ziyouz.uz/kutubxona/yangi-kitoblar/adabiyotshunoslik-lugati-d-quronov-z-mamajonov-m-sheraliyeva/> (murojaat etilgan sana: 05.10.2024.)
14. Quronov S. “Boqiy Darbadar” asari haqida o‘ylar <https://quronov.uz//> (murojaat etilgan sana: 05.10.2024.)
15. Quronov S. Isajon Sultonning ikki romani haqida. — URL: <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/sadulla-quronov-isajon-sultonning-ikki-romani-haqida.html> (murojaat etilgan sana: 05.10.2024.)
16. Rahmon Qo‘chqor. Darbadarlikning bedor talqini. — URL: <https://kh-davron.uz/yangiliklar/muborak-kin/rahmon-qochqor-isajon-sulton.html> (murojaat etilgan sana: 05.10.2024.)
17. Xalliyeva G. Qiyosiy adabiyotshunoslik. — Toshkent: Akademnashr, 2020. — 81 b.
18. Yo‘ldoshov Q. Badiiy tahlil asoslari. — URL: <https://www.youtube.com/watch?v=tJECGOSsMsA> (murojaat etilgan sana: 05.10.2024.)
19. Белокурова, С.П. Словарь литературоведческих терминов. — Санкт-Петербург: Паритет, 2006. — URL: <http://gramma.ru/LIT/?id=3.0&page=1&wrд=%CA%CE%CD%D4%CB%C8%CA%D2&bukv=%CA> (дата обращения 05.10.2024.).

References

1. Alisher Navoiy *Lison ut-tayr (nasriy bayoni bilan)* (The Bird Language (with prose statement)), Tashkent, 2005, available at: <https://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/xurshid-davron-navoiynoma-xv-xvi-lison-ut-tayr-haj-armoni-yana-gavgo-mahbubul-qulub-navoiy-armoni.html> (September 05, 2024) (in Uzbek)
2. Alisher Navoiy *Lisonut tayr. Mukammal asarlar to‘plami 20 jildlik, 12-jild* (The Bird Language Perfect Collection of Works 20 volumes, Volume 12.), Tashkent: Fan, 1994, 357 p., available at: https://n.ziyouz.com/books/alisher_navoiy_asarlari/Alisher%20Navoiy.%20Mukammal%20asarlar%20to'plami.%2012-jild.pdf (September 05, 2024) (in Uzbek)

3. Bradbury R. *Fahrenheit 451*°, New York: Simon & Schuster Paperbacks, 1995, 229 p.
4. Bredberi R. Farengoyt bo'yicha 451 daraja (*Fahrenheit 451*°), available at: <https://kh-davron.uz/kutubxona/jahon/rev-bredberi-farengoyt-boyicha-451-daraja-nuriddin-egamov-kitob-kotargan-odam.html> (September 05, 2024) (in Uzbek)
5. Bredberi R. *Farengoyt buyicha 451*°. (*Fahrenheit 451*°), Tashkent: Nihol nashr, 2022, 224 p. (in Uzbek)
6. Harold B. *Bloom's Modern Critical Interpretations: Fahrenheit 451*, New York: Infobase Publishing, 2008, 133 p.
7. Ibrohimova R. *Voqelik va fantastika* (Reality and fiction), Tashkent: Muharrir, 2011, 198 p. (in Uzbek)
8. Sultonov I., *Sharq yulduzi*, 2010, No.6, available at: <https://kutubxona.samduuf.uz/download/4752> (September 05, 2024) (in Uzbek)
9. *Isajon Sulton ijodi: ilmiy maqolalar, taqrizlar, adabiy suhbatlar, maktublar* (The work of Sajan Sultanov: scientific articles, reviews, literary conversations, letters), Tashkent, Turon zamin ziyo, 2017, 384 p. (in Uzbek)
10. Kuchimov U. K. *Fantastik asarlarda badiiy psixologizm kontseptsiyasi* (The concept of artistic psychologism in fantastic works) Doctor's thesis, Toshkent, 2021, 159 p. (in Uzbek)
11. Matthew A. Dover Beach, available at: <https://www.poetryfoundation.org/poems/43588/dover-beach> (September 05, 2024.)
12. Meli S. *Adabiyot falsafasi yoxud ko'zga aylangan ko'ngil* (Philosophy of Literature or the Mind that has become the Eye), available at: <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/suvon-meli-adabiyot-falsafasi-yoxud-ko'zga-aylangan-kongil/?lng=lat> (September 05, 2024) (in Uzbek)
13. Kuronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. *Adabiyotshunoslik lugati* (Dictionary of literature), Tashkent: Akademyashr, 2010, 400 p., available at: <https://ziyouz.uz/kutubxona/yangi-kitoblar/adabiyotshunoslik-lugati-d-quronov-z-mamajonov-m-sheraliyeva/> (September 05, 2024) (in Uzbek)
14. Kuronov S. *Bokiy darbadar asari haqida uylar* (Thoughts on the work "Eternal Wanderer"), available at: <https://quronov.uz> (September 04, 2024.)
15. Kuronov S. *Isajon Sultonning ikki romani haqida* (About two novels by Isajan Sultan), available at: <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/sadulla-quronov-isajon-sultonning-ikki-romani-haqida.html> (September 05, 2024) (in Uzbek)
16. Rahmon Kuchkor., *Darbadarlikning bedor talqini* (Wanderer stories), available at: <https://kh-davron.uz/yangiliklar/muborak-kin/rahmon-qochqor-isajon-sulton.html> (September 05, 2024) (in Uzbek)
17. Khalliyeva G., *Kiyosiy adabiyotshunoslik* (Comparative Literary Studies), Tashkent: Akademyashr, 2020, 81 p. (in Uzbek)
18. Yuldoshov K., *Badiiy tahlil asoslari* (The basics of artistic analysis), available at: <https://www.youtube.com/watch?v=tJECGOSsMsA> (September 05, 2024) (in Uzbek)
19. Belokurova S.P. *Slovar' literaturovedcheskikh terminov* (Dictionary of Literary Terms), Saint Petersburg, Paritet, 2006, available at: <http://gramma.ru/LIT/?id=3.0&page=1&wrds=%CA%CE%CD%D4%CB%C8%CA%D2&bukv=%CA> (September 05, 2024) (in Russian)